



**EOC**  
EUROASIAN  
ONLINE  
CONFERENCES

# GERMANY

## CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON  
SCIENCE, ENGINEERING AND  
TECHNOLOGY**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi = digital object  
identifier

eoconf.com - from 2024



**INTERNATIONAL CONFERENCE ON SCIENCE, ENGINEERING AND TECHNOLOGY:**  
a collection scientific works of the International scientific conference –  
Hamburg, Germany, 2026 Issue 3

**Languages of publication:** Uzbek, English, Russian, German, Italian,  
Spanish,

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference « **INTERNATIONAL CONFERENCE ON SCIENCE, ENGINEERING AND TECHNOLOGY** ». Which took place in Hamburg 2026.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.



## O'zbek, turk va ingliz tillarida iboralarning qiyosiy tahlili

Umida Usmonbekova Islombek qizi

Farg'ona davlat universiteti

Xorijiy til va adabiyoti(ingliz tili) yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: **M.Qurbonova**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'zbek, turk va ingliz tillarida ishlatiladigan iboralarni qiyosiy tahlil qilinadi. Maqolada har bir tilning o'ziga xos ifoda uslubi, so'z birikmalari va ko'chma ma'nolari solishtiriladi.

**Kalit so'zlar:** Qiyosiy tahlil, o'zbek tili, turk tili, ingliz tili, ibora, uslub.

**Annotation:** This article provides a comparative analysis of expressions used in Uzbek, Turkish, and English. It compares the unique stylistic features, word combinations, and figurative meanings of each language.

**Keywords:** Comparative analysis, Uzbek language, Turkish language, English language, expression, style.

**Özet:** Bu makale, Özbekçe, Türkçe ve İngilizce'de kullanılan ifadelerin karşılaştırmalı analizini sunmaktadır. Makalede her dilin kendine özgü ifade tarzları, kelime birleşimleri ve mecazi anlamları karşılaştırılmaktadır.

**Anahtar kelimeler:** Karşılaştırmalı analiz, Özbek dili, Türk dili, İngilizce dili, ifade, üslup.

**Kirish.** Nutq jarayonida iboralarni qo'llash, uni yanada rang-barang bo'lishiga va jozibali ifodalashga yordam beradi. Shuningdek, turli tildagi atamalar o'sha xalqning madaniyati, urf-odatları va dunyoqarashini aks ettiradi. O'zbek, turk va ingliz tillari turli til oilalariga mansub bo'lsa-da, ba'zi iboralarda ma'no jihatidan o'xshashliklar mavjud. Asosan, iboralar so'zlarning alohida ma'nosidan ko'ra, butun ifoda sifatida tushuniladi.

**Adabiyot tahlili va Metodologiya.** Agar ma'lumotni oldindan eshitgan yoki bilgan bo'lsangiz, lekin kimdan eshitganingizni aytishni xohlamasangiz quyidagi ibora qo'llaniladi:

Qushlar shivirlashdi.

- Dadamdan maktub kelganini qayerdan bilding?
- Qushlar shivirlashdi.

Küçük bir kuş söyledi.

- Küçük bir kuş söyledi, sen işe alındın.

A little bird whispered me.<sup>1</sup>

- A little bird whispered me you got the prize money yesterday.

Biror hodisa to'satdan, kutilmaganda sodir bo'lsa va siz bundan taajjubda qolsangiz quyidagi ibora qo'llaniladi:

Tomdan tarasha tushganday.

- Tomdan tarasha tushganday, mashina shovqini eshilib, qushlarni uchirib yubordi.

Gökten düşer gibi.



- Gökten düşer gibi patron toplantıyı iptal etti.  
Out of the blue/Like a bolt from the blue.
  - She called me out of the blue.
  - The news came like a bolt from the blue.
- Agar biror yoqimsiz holat doimiy takrorlansa, unga javoban quyidagi atamani qo‘llash mumkin:
- Miyyani qoqib qo‘lga bermoq/Sabr kosasi to‘lmoq.
- “Qanday qilib yuz tonna teradilar?” – deb miyyamni qoqib qo‘limga berdi.<sup>2</sup>
  - Qo‘shni xonadagi shovqin uni sabr kosasini to‘ldirdi.
- Sabrini taşirmak.
- Patron sürekli geç kalan çalışanlarını uyararak sabrını taşırdı.
- Ask a lot to pick smb’s brain.
- “How do they pick a hundred tons?” – he asked a lot to pick my brain.
- Savol so‘ralib, unga javob berilmasa, nega so‘zlashmayotganini so‘rash uchun mazkur iboradan foydalaniladi:
- Tilini yutib yubormoq.
- Nima bo‘ldi? Tilingni yutib yubordingmi?
- Dili tutulmak.
- O kadar şaşırdım ki dilim tutuldu.
- Cat got your tongue?
- What’s the matter? Has the cat got your tongue?
- Umri qisqa qolganini aytish uchun mazkur iborani qo‘llash mumkin.
- Bir oyog‘i yerda, bir oyog‘i go‘rda.
- Mening bir oyog‘im yerda bo‘lsa, bir oyog‘i go‘rda. To‘satdan o‘lib qolsam. Son nefeslerini veriyor.
  - Büyükbaba son nefeslerini veriyor.
- Have one foot in the grave.
- I have one foot in the grave. If I suddenly die...
- Juda kulgili va qiziqarli holat sababidan o‘zni kulgidan tiya olmaslikka quyidagi atamani qo‘llash mumkin:
- Kulaverib ichagi uzilmoq/ Kulgidan qotib qolmoq.
- Kulaverib, ichagi uzildi.<sup>4</sup>
- Gülmekten kendini alamamak.
- O kadar komikti ki gülmekten kendimi alamadım.
- Laugh one’s head off.
- We watched that comedy last night and laughed our heads off.
- Kutilmagan yomon xabarni eshitganda, uni ifodalash uchun quyidagi iboradan foydalaniladi:
- Hushi boshidan uchmoq.
- Daraksiz degan so‘zni eshitdi-yu, onaning hushi boshidan uchdi.<sup>5</sup>
- Aklı başından gitmek/aklı başından uçmak.
- O haberle akli başımdan gitti.



Lose your head.

- He lost his head when he saw the car accident and didn't know what to do.

**Xulosa** Xulosa qilib aytganda, iboralar tilning eng qadimiy va tarixiy qatlamlaridan biri bo'lib, xalqning dunyoqarashi va qadriyatini aks ettiradi. Ko'plab iboralar madaniyatlararo farqlarni aniqlash va tilni o'rganishda muhim vosita hisoblanadi. Iboralarni tahlil qilish orqali har bir jamiyatning ijtimoiy qoidalari va odatlari haqida ma'lumot olish mumkin. Iboralar so'zlarning oddiy ma'nosini oshirib, so'zning hissiy va psixologik ta'sirini kuchaytiradi.. Iboralarni solishtirish til o'rganuvchilarga so'zlarning turli madaniy ramzlarini tushunishga yordam beradi. Iboralar orqali tilning ijtimoiy va psixologik xususiyatlari masalan hazil, kinoya yoki ogohlantirish yanada ochib beriladi. Shu bilan birga, idiomalarni o'rganish nutqni tabiiy va qiziqarli qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Inglizcha-o'zbekcha idiomalar lug'ati.A.L.Yusupov. Toshkent,2014.
2. Xirmon etak.R.Farziy.
3. Aql chirog'i.O'.Azimov.
4. Olovkor.I.Rahim.
5. Chin muhabbat.I.Rahim.
6. <https://toshquvvatovdictionary>. Inglizcha iboralar.